HADISLARDA INSON VA JAMIYAT MUNOSABATLARI TAHLILI

M.X.Xolnazarova
Guliston davlat universiteti professori, psixologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom dinining ikkinchi manbasi bo‘lgan hadislarda inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-psixologik va axloqiy jihatlari tahlil qilinadi. Hadislarda ilgari surilgan ijtimoiy birdamlik, o‘zaro yordam va jamoat tartibiga oid ko‘rsatmalar zamonaviy psixologik yondashuvlar bilan qiyoslanadi. Maqola hadislarning bugungi kunda sog‘lom jamiyat barpo etishdagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Hadis, inson, jamiyat, ijtimoiy birdamlik, empatiya, huquq, axloq, jamoat manfaati, ijtimoiy mas’uliyat.

Har qanday jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti undagi shaxslararo munosabatlarning qay darajada sog‘lom ekanligiga bog‘liq. Islom sivilizatsiyasining ma’naviy asosi bo‘lgan hadislar to‘plami inson va jamiyat munosabatlarini tartibga soluvchi mukammal “ijtimoiy kodeks” vazifasini o‘taydi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hadislarida inson nafaqat alohida shaxs, balki jamiyatning uzviy bo‘lagi, uning farovonligi uchun mas’ul bo‘lgan sub’ekt sifatida talqin etiladi.

Inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar ijtimoiy gumanitar fanlar qatori psixologiyaning ham tadqiqot ob’ektlaridan biridir. Avvalo shuni aytish kerakki, hadislar bugungi kunda biz qo‘llayotgan “jamiyat” tushunchasidan mutlaqo bexabar edi, degan xulosaga kelmaydi. O‘sha davrda “jamiyat” tushunchasi o‘rniga “jamoat”, “ahillik”, “ittifoq”, “din ahli” “islom ahli”, kabi tushunchalar qo‘llanilgan. Jamoada yashash, namoz o‘qish, diniy urf-odat va marosimlarni bajarish o‘ziga xos ijtimoiy ma’noga ega edi. Abu Dadro shunday rivoyat, hadisni keltiradi: “Qishloqdami, sahrodami, uch kishi bo‘lsa-yu, ular ichida jamoat namozi qoim qilinmasa, albatta shayton ularga ega chiqar. Jamoatni lozim tut. Ayrilganni bo‘ri yer”. Islom dinida jamoat namozining ahamiyati katta. “U mo‘min – musulmonlar orasidagi aloqalarni mustahkamlaydi. Jamoat namozida ishtirok etgan kishilar bir-birlari bilan yaqindan tanishadilar, hollaridan xabar oladilar, bir-birlariga ta’lim beradilar, boshqa ijtimoiy masalalarni hal qilishda birgalashib harakat qiladilar. Hozir dunyodagi turli jamiyatlardagi kishilar aynan shu muammolarni hal qila olmay, dog‘da qolib o‘tiribdilar.”[1]

Insonning jamoa bilan munosabati, birinchi navbatda, jamoat ibodatida ishtirok etish yoki qatnashmaslik masalalari bilan bog‘liq. Jamoat namozida qanday odam qatnashadi va qanday odam

[1] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва ҳаёт. Намоз китоби. 6-Жуз. – Т.: – Шарқ, 2011. – 100 б.

qatnasha olmaydi? Bu odamga qanday foyda keltiradi? Jamoat namoziga hamma qatnashadimi, jumladan, bolalar va ayollar?

Imom Buxoriy Muhammad (s.a.v) payg‘ambarga Rabbi tomonidan besh vaqt namoz farz qilinganini keltiradi. Keyinchalik namoz o‘qish islom aqidasiga ikkinchi rukn, shart sifatida kiritilgan. Ma’lumki, Muhammad (s.a.v) payg‘ambar namozni bir kiyimda, bir tarafini u tomonga, (yelkaga), u tomonini bu tomonga, (yelkaga) tashlab ado etgan. Bir kishi undan buning sirini so‘ragan va “Hammangizning ham ikkitadan kiyimingiz bormi?”- degan javobni olgan[1]. Imom Buxoriy Hasan Basriy rivoyatini keltiradi: “Majusiy to‘qigan kiyimda namoz o‘qimoqning zarari yo‘q”, - deydilar. Ma’mar esa: “Go‘shti yeyiladigan hayvon siydigiga bo‘kkan yamaniy kiyimni Az-Zuhriy kiyganini va Hazrat Alining uzun kiyimda namoz o‘qiganlarini ko‘rganman”,- deydilar.”[2] Shuning uchun, turli xil kiyim kiyganlar, hatto majusiylar tomonidan tikilgan bo‘lsa ham, jamoaviy namozda qatnashishga ruxsat beriladi. Ammo bu kiyimlar gulli bo‘lmasligi, insonlarni, jamoatni ibodatdan chalg‘itmasligi kerak. Namoz o‘qiladigan jamoat joyi ham ko‘zni qamashtiruvchi bezaklardan xoli bo‘lgan.

Islom dini shakllanayotgan davrda odamlar Alloh va Rasuliga itoat qilish, namoz o‘qish kabi oddiy talablarni bajarishga ko‘ra musulmon va kofirga bo‘lingan. Islomni qabul qilgan barcha odamlar musulmon qonuni oldida teng bo‘lgan. Imom Buxoriy Anas tilidan quyidagi hadisni keltiradilar: “Kimki “la ilaha illallohu” degaydir, qiblamizni qibla qilg‘aydir, namozni o‘qigaydiru, biz so‘ygan mol-hol go‘shtini yegaydir, u musulmondir. Musulmonga ne huquq berilgaydur, unga ham o‘sha huquq berilgusidur va musulmonga qanday vazifa yuklangaydur, unga ham o‘sha vazifa yuklangusidir.”[3] “Bir gal jangga Zayd boshchilik qilishini eshitib, “Bu nimasi, qul bizga sarkarda bo‘ladimi”,- deb arablar norozi bo‘lishadi. Shunda Muhammad sallallohi alayhi vassallam qat’iyat bilan: “U musulmon!”, - deydilar va bahsga chek qo‘yadilar”[4]. Shu bilan birga Muhammad (s.a.v) payg‘ambar boshqa dindagi kishilarni hurmat qilishga chaqirardi. U kishi Muso va Iso payg‘ambar hayoti bilan bog‘liq hadis-sunnatlarni ko‘plab keltirgan. “O‘zga dinlarni hurmatlang”,- deb hamisha nasihat qilgan. Demak, insonlarni din atrofida birlashtirib tenglashtirish islomning ilk shakllanishidayoq maqsad qilib qo‘yilgan. Mo‘minlar hech qachon zalolat ishga birlashmaydilar. Qachonki odamlar o‘rtasida ixtilofni sezsalaring, ko‘pchilik tomonga o‘tib olinglar”[5]. Bu yuqoridagi fikrimiz dalilidir. Bu bilan islom insonlar o‘rtasida yuzaga kelgan nizo va ixtiloflarni tinch yo‘l bilan bartaraf etishni ko‘zlaydi. “Kishilar o‘rtasidagi nizo va muammolar xususida to‘g‘ri fikr beradigan va odilona hukm chiqaradiganlar yaxshi odamlardir”[6]. Bunday “yaxshi odamlar” islom aqidasiga bo‘ysunuvchi va musulmon dindorlarni birlashishga va jamiyatda ittifoq bo‘lib yashashga chaqiradigan odamlardir.

Islomdagi eng go‘zal, insonparvar, ezgu g‘oyalardan biri jamiyat bilan hamjihatlikda yashashdir. To‘g‘ri, barcha dinlar o‘z birodarlari bilan hamjihatlikda yashashga undaydi. Shuning uchun ham cherkovlar, sinagogalar quriladi, lekin ularning hech biri inson huquqlarini butun jamoa huquqlari bilan tenglashtirmaydi, totuvlik, birlikni barqarorlik, tinchlik, poklik, ma’naviy boylik darajasiga ko‘tarmaydi. Garchi buddizm dindorlarni birlashtirish uchun sangha (ma’bad) qursa ham, u odamni najotni o‘zidan izlashga undaydi: “Xaloskor ham o‘zing, mayoq ham o‘zing, najotni yolg‘iz o‘zingdan izla”.

Inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar odatda ijtimoiy hayot sohalari orqali tahlil qilinadi. Ular ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy, axloqiy, psixologik ko‘rinishlarga ega bo‘lib, har bir tadqiqotchi ularga o‘z maqsadi nuqtai nazaridan yondashadi. Hadislarda inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishga fanda shakllangan bu an’ana ham yordam beradi.

Maxsus tadqiqotlar natijalari ko‘rsatadiki, islom ta’limotida, shu jumladan hadislarda insonlarning shaxsiy va ijtimoiy faoliyatlarining barcha jihatlari: moddiy va ma’naviy, xo‘jalik va

[1] Имом ал-Бухорий. Ал-жомиъ ас-саҳиҳ. 1- китоби. Тошкент.: – Шарқ, 2011. – 111 б.
[2] Ўша асар. -112 б.
[3] Имом ал-Бухорий. Ал-жомиъ ас-саҳиҳ. 1- китоби. - Тошкент.: – Шарқ, 2011. – 121 б.
[4] Пайғамбарлар қиссаси. Ҳадислар. - Тошкент.: – Камалак, 1991. – 43 б.
[5] Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. Тошкент.: – Фан, 1990. – 48 б.
[6] Ўша жойда.

siyosiy, oilaviy va ijtimoiy, huquqiy, ma’rifiy faoliyatlari yagona Allohga e’tiqod qilishlari, sig‘inishlari bilan bog‘liq bo‘lsada, uning jamiyatda tutgan o‘rni, individualligi kamsitiladi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Aksincha, islom inson bilan jamoa (jamiyat) o‘rtasidagi tenglikni, insonning mustaqilligini himoya qilgan holda, har bir inson Alloh oldida javobgarligi ham uqtiriladi. Inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar markazida inson turadi va bu munosabatlarga mohiyat beruvchi kuch Xudodir. Xudo bu munosabatlarni shakllantirmaydi va ularni amalga oshirishni shart qilmaydi. Inson irodasiga ko‘ra ularga amal qiladi. Inson irodasi orqali Alloh amrini, u belgilab bergan g‘oyalarni ijtimoiy munosabatlarga tadbiq etadi. Yaxshilik va ezgulik, yon-atrofdagi kishilar bilan ahil bo‘lib, murosada yashash fikri ana shu g‘oyalarga singdirilgan. Imom Buxoriy Abu Dardo roziyallohu anhudan rivoyat qiladilar: “Rasulullo: “Men sizga namozdan, ro‘zadan va sadaqadan ham darajasi ortiqroq narsani aytib beraymi? -dedilar. Sahobalar: “Aytib bering, yo Rasulullo,”- deyishdi. Rasulullo: “U esa kishilarning orasi tuzuk bo‘lishidir. Uning buzuq bo‘lishi hamma yaxshiliklarni taroshlaguvchidir,” dedilar.[1] Binobarin, Muhammad (s.a.v) payg‘ambarning ta’kidlashicha, odamlar o‘rtasidagi totuvlik islom dinidagi namoz, ro‘za, zakot kabi islom ruknlaridan ham afzal va yuksakdir. E’tiqod va din ana shunday uyg‘unlik va birlikni hosil qilgani uchun qadrlidir.

Ijtimoiy-siyosiy xususiyat inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda kasb etmasligi mumkin emas. Hadislarda bunday mavzu alohida tilga olinmagan yoki alohida tahlil qilinmagan bo‘lsa-da, ular uchrab turadi. Imom Buxoriy yozadi: “Abdulloh ibn Amrdan rivoyat qilindi. Bu kishi aytdilar: “Bani Isroil zamonida bir kishining uyiga mehmon keldi. Ularning hovlisida bir urg‘ochi it bo‘lib, unga egalari “Mehmonimizga vovullab, uning tinchligini buzmagin,” deb tayinlashdi. It o‘zi vovullamasa ham qornidagi bolalari akillashdi. Shunda ular bu voqeani o‘z payg‘ambarlariga zikr qilganlarida payg‘ambarlari: “Bu hol sizlardan keyin bo‘ladigan bir millatning holiga o‘xshaydi. Ular orasidagi nodonlari donolari ustidan hukmronlik qiladi,” degan ekan.”[2] Agar johil insonlar donolarni boshqarsa, ijtimoiy munosabatlar buziladi, millat, jamiyat tanazzulga yuz tutadi. Inson va jamiyat va o‘rtasidagi munosabatlar oqilona tartiblarni talab qiladi.

Shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning o‘rnatilishi ijtimoiy-siyosiy omillar bilan uzviy bog‘liq. Ana shu omillar shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarga ijtimoiy mohiyat va yo‘nalish beradi. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-siyosiy omillar inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni boshqaradi, buning uchun ular maxsus institutlar, qonunlar va tartiblarni yaratadi, o‘z faoliyatini amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqadi. Hadislardagi bunday ijtimoiy-siyosiy omil, eng avvalo, Qur’oni Karim va hadislar hisoblanadi.

Qur’oni Karim va Hadislar insonlarni Allohga va Uning Rasuliga itoat qilishga, iymon keltirishga chaqiradi va ular o‘zlarining ijtimoiy munosabatlarini va hatto shaxsiy hayotlarini belgilaydilar. Demak, Islom dini nafaqat din, e’tiqod, u inson va jamiyat hayotini nazorat qiluvchi va yo‘naltiruvchi, mo‘minlar va musulmonlar jamoasi tomonidan tan olingan va qabul qilingan dasturulamal hisoblanadi. Shuning uchun ham Islomda jamiyat va davlatni boshqarishni iymon bilan bog‘laydi: “Kimki saltanatini Allohga itoatsiz bo‘lish bilan quvvatlasa, qiyomat kuni Alloh uni xor qiladi.”[3]

Inson va jamiyat o‘rtasidagi huquqiy (fiqh) munosabatlar hadislarda katta o‘rin tutadi. Imom Buxoriy “Al-Jome as-Sahih”ning barcha kitoblarida ushbu hadislarni keltirgan. Darhaqiqat, janob Rasulullohning barcha hadis va sunnatlari huquqiy (huquqiy) xususiyatga ega, chunki islom aqidasiga ko‘ra, payg‘ambarning so‘zlari, amallari va ko‘rsatmalari oliy haqiqat, inkor etilmaydigan tartib va hukm sanaladi. Hadisi sharifda barcha insonlar, ya’ni musulmonlar teng huquqlarga ega ekanligi ta’kidlangan. Hadisga ko‘ra hech kim o‘ziga ravo ko‘rmagan narsani o‘zgalarga ham ravo ko‘rmasligi kerak. Bu haqda Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam shunday deganlar: “Kishi do‘zaxdan xalos bo‘lmoqni istasa, o‘z nafsiga ravo ko‘rmaganni hech bir musulmonga ravo ko‘rmasin.”[4] Darhaqiqat, odamlar o‘rtasidagi tenglikni, huquqiy munosabatlarni

[1] Имом Исмоил ал-Бухорий. Ал-адаб ал-муфрад (Адаб дурдоналари). –Тошкент: Ўзбекистон, 1990. 11 б.
[2] Имом Исмоил ал-Бухорий. Ал-адаб ал-муфрад (Адаб дурдоналари). –Тошкент: Ўзбекистон, 1990. 138 б.
[3] Пайғамбарлар қиссаси. Ҳадислар. Тошкент.: – Камалак, 1991. – 113 б.
[4] Абу Ҳомид Ғаззолий.Кимиёйи саодат. (Рух ҳақиқати) Тошкент.: Адолат, 2005. – 315 б.

ana shu tamoyilsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Huquqiy munosabatlarning buzilishi haqiqatda ana shu qoidani buzish yoki noto‘g‘ri tushunish natijasida yuzaga keladi. “Kim boshqa birovning o‘ziga teng inson ekanini, o‘ziga xush yoqadigan narsalarni boshqa birovlarga ham xush yoqishini bilsa, o‘ziga yoqmaydigan, noqonuniy, g‘ayriaxloqiy narsalarni boshqalarga ham ravo ko‘rmaydi, tilamaydi, chunki har bir inson niyatiga va o‘ziga yarasha amal qilg‘aydir.”[1]

Insonning joniga qasd qilish, uni o‘ldirish, molini o‘g‘irlash va boshqalarga zulm qilish hadislarda qoralanadi. Moli-mehnati, chekkan aziyati tufayli topgan halol rizqi, zulm esa adolatsizlik, kuch ishlatish, inson shanini toptash sifatida qaraladi. Ular inson hayoti oliy ne’mat, mehnati evaziga topilgan halol rizq, zulmni esa adolatsizlik, kuch ishlatish va inson qadr-qimmatini poymol qilish deb qaraladi. Imom Buxoriy o‘z kitobida shunday keltiradi: “Rasulullоh sallallohu alayhi vassallam ul-Vido‘da turganlarida Jarir ibn Abdullohga: “Odamlarni jim qilgil!”- dedilar, so‘ngra: “Mendan keyin bir-biringizni o‘ldiradigan kofirlar bo‘lib ketmangiz!”- deb qo‘shib qo‘ydilar”[2]. Umuman olganda, islom dini inson hayotiga Alloh tomonidan berilgan eng oliy ne’mat deb qaraydi, shuning uchun ham undan insonni, hatto o‘zini ham undan mahrum qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Islomda insonni yashash huquqidan mahrum qilish Xudoning ishi deb qaraladi. Ushbu huquqiy norma islomda inson, uning hayoti, sha’ni va qadr-qimmati naqadar ulug‘langanligini ko‘rsatadi. Quyidagi hadisda shunday deyiladi: “O‘zini-o‘zi bo‘g‘ib o‘ldirgan odamni do‘zaxda bo‘g‘ishgaydir va o‘ziga-o‘zi pichoq urib o‘ldirgan odamni do‘zaxda pichoqlashgaydir.”[3] Yana bir hadisda: “Kimki o‘zini temir bilan o‘ldirgay, o‘shal temir bilan unga jahannamda azob berilgaydir.”[4]

Zulm va zo‘ravonlik huquqiy munosabatlarning mohiyatini belgilab, inson va jamiyat, shaxs va davlat, fuqaro va hukmdor o‘rtasidagi ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy munosabatlar shakliga aylandi. Islom zulm va zo‘ravonlikni qoraladi va eng avvalo o‘z aqidasiga ko‘ra zulmni rad etdi. Shu bilan birga, hadislarda zulmni ijtimoiy-huquqiy mohiyatga ega voqelik sifatida uchratamiz. Bu borada Imom Buxoriy quyidagi hadisni keltiradi: “Zulm, (ya’ni, birovning haqqini yeyish, pulning qaytimini bermaslik yoxud kam berish yoki molning vazni, bo‘yi hamda enidan urib qolish kabi boshqa tur jinoyatlar zulm sohibining boshiga) qiyomat kuni zulmat (balo) bo‘lur. ”(Ya’ni, Alloh taolo bu dunyoda birovlarga zulm qilgan odamni qiyomat kuni hidoyat qilmas va u o‘zi qilgan zulmlar botqog‘iga toyib ketib, jahannam otashiga qular).”[5]

Zulm iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy-axloqiy bo‘lishi mumkinligi ushbu hadis mazmunidan ma’lum bo‘lmoqda. “Kim o‘zgalarga, insonlarga (xoh diniy bo‘lsin, xoh dunyoviy) zulm yetkazsa, “intiqom olurlar”[6]. Zolimni so‘z bilan, agar ko‘nmasa, kuch bilan to‘xtatish, zulmdan qaytarish mumkin”[7]. Bu yerda eng avvalo hokimiyat, davlat, huquq-tartibot bo‘lishi kerakligi, “zolimni so‘z bilan ko‘nmasa, kuch bilan zulmdan qaytarish” nazarda tutilmoqda.

Hadislarda inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, bu boradagi muammolar ijtimoiylik, jamoaviylik, ya’ni jamoachilik nuqtai nazaridan hal etilgan. Imom Buxoriyning “Al-Jome as-sahih” asarida individuallikni qo‘llab-quvvatlovchi, shaxsning jamiyatga qarama-qarshiligini targ‘ib qiluvchi birorta hadis yo‘q. Musulmonlar o‘rtasida totuvlik, yetimlarning boshini silash, o‘z boyligini boshqalarga baham ko‘rish, bolalarni sevish, mehnat bilan ro‘zg‘or tebratish, boshqalarning ehtiyojini qondirish kabi xayrli ishlarni qo‘llab-quvvatlaydilar. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) men mudom yaxshilik qiluvchilar tomonidaman, degan hikmatni tez-tez takrorlar edilar. Ezgulik xalqni, jamiyatni birlashtiruvchi da’vat, kuch va g‘oyadir.

Islom dinida insonlar o‘rtasidagi munosabatlar va aloqalarga alohida e’tibor bergan. Insonlar o‘rtasidagi doimiy muloqot nafaqat din uchun, balki jamiyat va totuvlik uchun ham zarur edi. Bu muloqotlar oddiy o‘zaro munosabatlardan tortib, boshqa dinlar, mamlakatlar va millatlar vakillari

[1] Имом ал-Бухорий. Ал-Жомиъ ас-саҳиҳ. 1- китоб. Тошкент.: – Шарқ, 2011. – 27 б.
[2] Ўша жойда.
[3] Имом ал-Бухорий. Ал-Жомиъ ас-саҳиҳ. 1- китоб. Тошкент.: – Шарқ, 2011. – 371 б.
[4] Имом ал-Бухорий. Ал-Жомиъ ас-саҳиҳ. 1- китоб. Тошкент.: – Шарқ, 2011. – 371 б.
[5] Имом ал-Бухорий. Ал-Жомиъ ас-саҳиҳ. 2-к. – 103 б.
[6] Имом ал-Бухорий. Ал-Жомиъ ас-саҳиҳ. 2-к. – 103 б.
[7] Имом ал-Бухорий. Ал-Жомиъ ас-саҳиҳ. 2-к. 102 б.

bilan savdo va diplomatik munosabatlargacha bo‘lgan. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, “Al-Jome’ as-Sahih” asarida ko‘plab aloqa turlari mavjud. Anas raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: “Rasulullоh (s.a.v.) ajamlardan bir guruhiga yoki ajam qavmlardan biriga maktub yozmoqchi bo‘lgan edilar. “Ular muhr bosilmagan maktubni qabul qilmaydilar,” – deb aytishdi. Shu sababdan Rasulullоh (s.a.v.) bir kumush uzuk buyurib, unga “Muhammad Rasulullоh” degan so‘zlarni naqsh qildirdilar. Ma’lumki, shaxsiy muhrdan foydalanish an’anasi juda uzoq tarixga ega bo‘lib, u ilk bor sharq mamlakatlarida paydo bo‘lgan va ma’lum bir shaxs yoki idora tomonidan berilgan hujjatning ishonchli ekanligini ta’minlagan.”[1] Bu yerda muloqot xalqaro diplomatiya shaklini oladi. Islom dinini yoyish, davlatlar va xalqlar o‘rtasida aloqalar o‘rnatish, savdo-sotiq va aloqa o‘rnatish uchun bunday diplomatik muloqotlar juda zarur edi.

Islom bu muloqot shakllarini o‘z aqidasiga muvofiq amalga oshirishga harakat qilgan bo‘lsa-da, ular, albatta, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘z ichiga olishi kerak edi. Bu munosabatlarni qat’iy tartib-qoidalarga solish murakkab edi.

Aytishimiz mumkinki, ma’naviy-axloqiy munosabatlar hadislarning ijtimoiy-psixologik asosini va o‘zagini tashkil etadi. Har bir hadisdan inson, uning jamoat va shaxsiy hayotiga oid xulosa chiqarish mumkin.

Hadislarda ezgulik, muhabbat, odob-axloq, halollik, adolat kabi shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni belgilovchi axloqiy amallar haqida rivoyatlar mavjud. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) “Bir-biringizga muhabbat qilmaguningizcha, musulmon bo‘lmaysizlar”, - deydi. Shuning uchun bir-biriga muhabbatli bo‘lish – musulmonlarning shioridir.”[2] Yana bir hadisi sharifda: “Oralaringizda eng yaxshingiz – xulqi yaxshingizdir.”[3] Bu shunchaki da’vat, shior emas, inson va jamiyat o`rtasidagi ma’naviy-axloqiy munosabatlarning psixologik mohiyatidir. Ana shu mohiyatga muvofiq ma’naviy-axloqiy munosabatlar insoniy fazilatlar va ezgu qadriyatlarni yuksaltirish va mustahkamlashga qaratilgan.